



Ona haqida 3 ta fikr ayting, 2 ta savol tuzing, 1 ta soʻz bilan oʻxshatish toping.



Taniqli bolalar shoiri, Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan xalq taʼlimi aʼlochisi Obid Rasul oʻz ijodiy faoliyatini jaji oʻgʻil-qizlarimiz uchun quvnoq sheʼrlar yozishga bagʻishlagan. Uning “Koʻk chakmonli yigitcha”, “Olmazor”, “Quvnoq bolalar”, “Asal amaki”, “Sadaf tishli amaki”, “Chashma”, “Keling bizning polizga” singari talaygina kitoblari bosib chiqarilgan.

Obid Rasul uzoq yillar davomida maktabda oʻqituvchi boʻlib ishlaganligi uchun ham bolalarning feʼl-atvorini juda yaxshi bilardi.



Ona

(Alisher Navoiyning onasi – Maʼsuma begimga)

Ona – eng ulugʻ zot,
Bagʻri – keng dunyo.
U bilan yechilar
Koʻplab muammo!

U dono sarbondir
Umr yoʻlida.
Ne-ne buyuk zotlar
Oʻsgan yoʻlida.

Kiprigida asrab
Jon parchasini,
Lang ochgan olamning
Darichasini.

Yemakni o'rgatgan,
So'zni – kalomni,
Odob ila axloq
Va assalomni.

O'rgatgan zukkolik,
Rostlik, poklikni.
Shirin suxanlig-u
Chin o'rtoqlikni.

Alisher onasi –
Ma'suma – begim!
Sizdek ulug' zotga
Keldi so'z degim.

– Navoiydek buyuk,
Daho berib – siz,
Avlodlarni abad
Xushnud qilibsiz.

Besh yarim asrkim
Alisher – tirik.
O'qir xalq merosin
Qoqmasdan kiprik.

Halollik – ma'rifat,
Do'stlik – adolat,
Bosh mavzu shoirda
Vijdon – diyonat.

Uning umri quyosh
Umridek uzun.
Siz ham, begim, borsiz
Har dilda bugun.



1. She'r kim haqida ekan?
2. She'rda onaga qanday ta'rif berilgan?
3. Siz onangizga qanday ta'rif bergan bo'lardingiz?
4. She'rda ona tarbiyasi haqida nimalar deyilgan?
5. Nima deb o'ylaysiz,
"Siz ham, begim, borsiz
Har dilda bugun" misrasining ma'nosi qanday?



Har bir qatorga ona so'ziga bittadan yangi so'z qo'shib, gap tuzing.



daho – ziyoratlik, zakovat
begim – bekning onasi yoki ular haqida gapirilganda ishlatiladi



Maqollarni o'qing va mazmunini izohlang.

Ona – , bola – .

Bola –  bo'lsa, ona – .

Onangni –  bilsang, otangni  bil.



She'ni ifodali o'qing. Fikrni davom ettiring: “Ona borki...”